



## O'ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA ETNODEMOGRAFIK JARAYONLAR (1946-1990-YILLAR)

Raxmanov Xolmuxammad Kurbonmurot o'g'li

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti

1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6629708>

### ARTICLE INFO

Received: 28<sup>th</sup> May 2022

Accepted: 02<sup>nd</sup> June 2022

Online: 05<sup>th</sup> June 2022

### KEY WORDS

*Qashqadaryo,  
Surxondaryo, demografik  
vaziyat, janub, migratsiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy hududlari, ya'ni Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida 1946-1990 yillarda mavjud bo'lgan etnodemografik jarayonlar, migratsion harakatlar va shu kabi masalalar yoritiladi.*

### KIRISH

Jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan Qashqadaryo va Surxon vogalari o'z davrida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalarni o'z boshidan kechirganligi ko'plab tarixiy-ilmiiy manbalarda aks ettirilgan. Ma'lumki, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari O'rta Osiyoning yangi davri davlatchiligi tarixida muxim ahamiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalar yuz berganligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilayotgan tarixiy tadqiqotlar yo'nalishida XX asrda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning tarixiy demografik nuqtai nazaridan tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Sovet davri adabiyotlarining alohida ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular hukmron mafkura asosida yozilgan bo'lib, mualliflar murakkab tarixiy jarayoniga ushbu mafkura manfaatlari nuqtai-

nazaridan yondoshganlar. Mazkur adabiyotlarda aholi ro'yxati, statistik ma'lumotlar, shuningdek arxiv hujjatlaridan foydalanilsa-da, ulardan hukmron partiya manfaatini ko'zlovchi xulosalar chiqarilardi. Aholining ijtimoiy turmush tarzi va holati keng jamoatchilikka ma'lum etilmasdi. Bu yillarda O'zbekistoida aholining demografik holati (migratsion jarayonlar, aholining usishi), O'zbekistonning yagona xalq xo'jaligidagi o'rni, xususan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridagi ijtimoiy holatlarga to'xtalgan asarlar ham mavjud. Bunday adabiyotlarga Qoraxonov M., Rayimjonov 3., Kononenko S.N., Kovalev S.A., Akramov Z.M., Raimov T.I., Mullajonov I.R., Ata-Mirzaev O.B., Maksakova L.P., Fayziev N.M., Soliev A., Ziyodullaev S.K., Ziyodullaev N.S., Tuxtaev E.S. va boshqalarning asarlarini alohida qayd etish mumkin.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekistonning janubiy viloyatlarida yashagan aholining ijtimoiy-iqtisodiy



ahvoli, demografik holati, migratsion jarayonlar Surxondaryo, Qashqadaryoda yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chib kelgan aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'lab ko'plab boshqa ilmiy manbalarni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Manbalarda qayd etilishicha, II jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonga sobiq ittifoq iqtisodiyotini tiklash uchun boshqa respublikalardan ko'plab sanoat korxonalarining butun ishchi kuchi jamoasi bilan birga ko'chirib keltirilishi masalasi xususida ham fikr yuritadilar. Jumladan, I. Otaqulovning maqolasida Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Inkobod kishlog'idan Muzrabot tumanidagi «Beshkuton» massiviga ko'chirilgan xo'jaliklar xususida so'z yuritiladi. Muallif o'sha davrga mafkuraviy qarashlar bilan yondoshgan holda ko'chirilgan xo'jaliklar, kolxozlar va sovxozlarning barpo etilishini qishloq xo'jaligi rivojida muhim tayanch vazifasini bajargan deb hisoblaydi. Bunday qarashlarni R. Murodov, N. Ochino, X. Turaev, Yu. Manzarov, K. Solievlarning manblalarida VI m kurishmumkin.

Sovet davlatining datagonlik siyosati, sobiq ittifoqdagi demografik jarayonlar xorij tadqiqotchilari e'tiboridan ham chetda qoll magan. Jumladan, 1960-1970 yillarda sobiq ittifoqda xalqlarining zo'rlik bilan ko'chirilishiga doir tadqiqotlar chet ellarda xam e'lon qilingan. Bunday tadqiqotlarning mualliflari xorijiy olimlar hamda Rossiyaning siyosiy emigrantlari edilar. Ular kam sonli damda zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlarning sobiq ittifoq milliy siyosatida tutgan o'rni va rolini o'rganishga alohida e'tibor qaratdilar. Mazkur mavzuni o'rganishda umumlashtiruvchi tadqiqotlardan biri A.Nekrichning «Наказанные народы» monografiyasi

bo'lib, u bu yo'nalishdagi dastlabki qadam sifatida muhim ahamiyatga ega. Unda muallif sovet davlatining milliy siyosatini tahlil qilishga, ikkinchi jahon urushi yillarida mamlakatdagi ichki vaziyatni ochib berishga, ko'chirilgan xalqlarning soni va ularning ijtimoiy ahvolini aniqlashga uringan. Garchi, tadqiqotchining xulosalari, ba'zan ziddiyatli bo'lsa-da, u o'z asarida o'rganilayotgan muammolarga kompleks ravishda yondoshishga harakat qilgan. A.Nekrich tadqiqotlari natijasida xalqlarni deportatsiya qilish «Sovet davlati va jamiyati tarixining ajralmas tarkibiy qismidir», degan xulosaga kelgan.

O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi aholi demografiyasi hamda migratsion jarayonlar shundan dalolat beradiki, bu mavzu bugungi kungacha to'liq har tomonlama va yaxlit tadqiqot obyekti sifatida mukammal darajada o'rganilmagan. Ammo tarixni qiyosiy tahlil qilish, bugungi voqelikni mushohada etish jamiyatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni to'laligicha his qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda migratsiya jarayoniniig yana bir o'ziga xos tomoni bo'lib, bu ikkinchi jahon urushidan so'ng sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda O'zbekistan xalqi oldida qishloq xo'jaligini har tomonlama taraqqiy ettirish, mavjud muammolarni tezroq tugatish, moddiy texnikaviy ahvolni yaxshilash kabi vazifalar turgan edi.

Shuningdek, 1953 yilda Respublikaning bir qator viloyatlaridagi ichki ko'chish jarayonlari ham e'tiborga molikdir. Biz tadqiq etayotgan viloyatlarda ushbu jarayon quyidagicha kechgan. Boysun tumanidan Angor tumaniga 350 ta, Sho'rchi tumanidan «Surxon» sovxoziga 200 ta xo'jalik oilalari ko'chirilgan bo'lib,



ulardan 150 tasi uy-joy bilan ta'minlangan. Qashqadaryo viloyatidan Toshkent viloyatiga 400 ta xo'jalik ko'chirilgan.

O'zbekistonga ko'plab aholining ko'chirib keltirilishi aholi soni va milliy tarkibining ortib borishiga sabab bo'lsa-da, ular asosan yirik shaharlarga joylashdilar. Shu bois, ayniqsa, shahar aholisining salmog'i ortib bordi. 1945 yilda respublika shaharlarida istiqomat qilayotgan aholi soni 1761 ming (33,8 foiz)ga teng bo'lgan bo'lsa, 1970 yilda bu ko'rsatkich 4322 ming (36,6 foiz), 1979 yilda esa 6348 ming (41,2 foiz) kishini tashkil etdi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, O'zbekistonda aholining tabiiy tez sur'atlarda o'sish ko'rsatkichi Tojikistondan keyin ittifoqda ikkinchi o'rinda turgan. Sobiq ittifoq bo'yicha 1970-1980 yillarda aholining tabiiy o'sishi har ming kishi hisobiga 10 kishini tashkil qilgan bo'lsa, respublikada esa bu 3 baravardan ko'proq bo'lgan.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, millatlarning hududiy joylashishi ham bir xil emas edi. Masalan, O'zbeklar qishloklarda ko'proq va aksincha sanoat shaharlarida kamroq joylashgan. Ular jami aholining Toshkent shahrida 44,2, Qoraqalpog'istonda 32,8, Toshkent viloyatida 50,2, Samarqandda 77,3, Farg'onada 81,0, Andijonda 87,5, Qashqadaryoda 87,7, Namanganda 85,1, Buxoroda 75,6, Surxondaryoda 79,5, Xorazmda 78,2 va Sirdaryoda 62,0 foizini tashkil etgan. Buning asosiy sabablaridan biri millatlarning tarixiy rivojlanishi bo'lsa, ikkinchidan respublika xalq xo'jaligi tarmoqlarining kengayishi bilan bog'liq edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekistonda xalq xo'jaligini tinch qurilish iziga o'tkazish va uni taraqqiy ettirish rejalarini ishlab chiqish ishlari boshlandi.

O'zbekiston xalqlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan. O'zbekistonning mashinasozlik sanoatini qishloq xo'jaligi va irrigatsiya ehtiyojlari uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarishga o'tkazildi. Bu yillarda aholini oziq-ovqat, yalpi sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash, buning uchun yoqilgi, elektr-energiya, malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni xalq xo'jaligidagi xizmatini ta'minlash vazifasi turar edi, lekin bu holatlarda O'zbekistonning geografik holati, milliy an'analari e'tiborga olinmadi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga doir bo'lgan dasturlar markazdan ishlab chiqildi.

O'zbekistonda 1946-1990 yillarda kechgan migratsiya jarayoni turli talqin etilib, respublikada zavod va fabrikalar qurilishi, ko'plab yangi yerlarning uzlashtirilishi dam da bopqa sodalarni ishchi-mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash maqsadida SSSRning markaziy tumanlaridan aholini ko'chirib keltirish bilan izohlanardi.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan tadbirlar asosan kuyidagi maksadlarga erishish uchun karatilgan edi: birinchidan, tez sur'atlar bilan ortib borayotgan mehnat resurslaridan kengroq foydalanish yo'li bilan respublika qishloq xo'jaligida xom ashyo ishlab chiqarishni ko'paytirish. Ikkinchidan, O'zbekistonni sovet hukumati paxtachiligining asosiy bazasi sifatida hissasini oshirish. Uchinchidan, qishloq xo'jaligi xizmatlarini respublikaning o'zida rivojlantirish va kengaytirishdan iborat bo'lgan.

Surxondaryo viloyatida aholining tabiiy ko'payishi shahar aholisining ko'payib borishiga ham olib keldi. 1939-yilda



viloyatda shahar aholisi umumiy aholining 9,3, 1950 yilda 15,4, 1970 yilda 16,0, 1979 yilda 19,3, 1989 yilda 19,4 foizini tashkil qildi. Tadqiq etilayotgan yillarda O'zbekistonning janubiy viloyatlaridagi ichki migratsiya jarayonlari e'tiborga molik. Masalan, 1949 yil 3 martida Sherobod tuman ijroiya qo'mitasining majlisi bo'lib, unda «Tallimaron» massivini o'zlashtirish haqidagi qarorga binoan tog' hududidagi Qizil olma, Laylog'on, Sherjon, Zarabog', Qorabog' qishloqlaridan aholi yangi o'zlashtirilgan yerlarga ko'chirildi. Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida qo'riq yerlarni o'zlashtirish ishlari jadal olib borildi. 1949-1950 yillarda Zang kanalining tarmog'i ishga tushirildi.

#### XULOSA VA MUNOZARA

1946-1990 yillar mobaynida janubiy viloyatlar aholisining milliy tarkibi turlicha

bo'lganligini alohida ta'kidlash lozim. Sovetlar hukmronligi davrida bu vodalarda sanoatni rivojlantirish, yangi yerlarni o'zlashtirish aholi milliy tarkibining ortishiga sabab bo'ldi. Turli arxiv hujjatlari va ma'lumotlarda Qashqadaryo va Surxondaryo aholisining o'sish sur'atlari ikkinchi jahon urushi yillariga qadar, asosan, tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligi va uning milliy tarkibiga ta'sir etganligi bilan tavsiflanadi. Biroq ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu viloyatlarda butun respublika hududida bo'lgani kabi aholining o'sish sur'ati keskin kamayganligini ko'rish mumkin. Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, sobiq sovet hukumatining kollektivlashtirish siyosati oqibatida aholining ichki migratsion jarayonlari faollashganligi kuzatiladi.

#### References:

1. Bobojonova D. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari (70-80-yillar urtalari) Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 1997. - 276-6.
2. Янгибоев М. Кашкадарё облает аҳолией ва мехнат ресурслари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. - Т.: 1973. - 172-6.
3. Мирзаев З. Культурная жизнь села Ўзбекистана: состояние, особенности и проблемы (60-е середина 77 годов). Автореф. дисс. докт. ист. наук. -Т.: 1991. - с. 49
4. Сафаров И. Народонаселение Сурхандаринской области (Демог. и геог. анализ). Автореф.дисс.канд.геог. наук. - Т.: 1974. - с. 25.
5. Файзиев Н.М. Некоторые проблемы развития народонаселения новых городов Ўзбекской ССР. - Автореф. дисс. канд. экон. наук. - Т.: 1968. - с. 22.